



## IRODA VA UNING SHAXSGA TA'SIRI

**Uzaqbayeva Surayyo Hamza qizi**

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Amaliy psixologiya yo'naliishi 2-kurs talabasi*


Hamma inson bu dunyoda yaxshi yashashni, barcha o'ylagan orzulariga, maqsadlariga erishishni har bir boshlagan ishi muvofaqiyat bilan tugashini xohlaydi. Inson katta bo'lgan sari maqsadlari ham kattalashib boradi. Har bir qo'yilgan maqsad ortida albatta qiyinchilik va to'siqlar bo'ladi. Bu to'siqlarni yengib o'tishi va o'zi xohlaganday hayot kechirishi uchun undan ishonch, sabr va eng asosiysi mustahkam irodani talab qiladi.

Shaxs faolligining har xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular funksional tomondan bir-biri bilan farqlanadi. Lekin iroda inson faolligining alohida o'ziga xos shaklidan iboratligi bilan ajralib turadi. Iroda shaxsning o'z xtti-harakatlarini (xulq-atvorini) o'zi boshqarishni u yoki bu xususiyatli intilish va istaklarni tormozlashni talab qiladi, binobarin u anglanilgan turlicha harakatlar tizimi mujassam bo'lishini nazarda tutadi. [E. G'oziyev, "Umumiy psixologiya", 2002-y, 211-b].

Inson ongli mavjudot hisoblanadi. Har bir aqli raso inson o'z xatti-harakatlarini anglagan holda amalga oshiradi. Oldinga qo'ygan orzu va intilishlariga o'zi anglagan holda erishish uchun harakat qiladi. Lekin inson zotida shunday xususiyat ham borki, o'ylagan orzu-niyatlarini tormozlashi ya'ni uni to'xtatib u maqsadidan voz kechishi. Aynan shu holat ham iroda bilan bog'liq jarayon. Iroda bu ilohiy kuch bo'lib, odamning oldiga qo'ygan rejalarini amalga oshirishda kuch-quvvat berib turadi. Dunyoda hech bir maqsadga osonlikcha erishib bo'lmaydi. Qiyinchiliklardan qo'rqaqidan irodasi sust insongina orzularidan voz kechib, uni tormozlaydi. Ya'ni odam irodasi orqali har xil xatti-harakatlarni o'zi anglagan holda amalga oshiradi. Iroda shaxsning psixologik qiyofasi, uning ijtimoiy hayoti va faoliyati sharoitida turli axborotlar natijasi sifatida yuzaga kelgan motivlarning xususiyati va maqsadi bilan uyg'unlashgandir. Irodaviy harakatning bevosita motivi tariqasida harakatlar tizimini vujudga keltiruvchi, ularni tartibga soluvchi rang-barang vaziyatlar, sharoitlar nomoyon bo'ladi. [E. G'oziyev, "Umumiy psixologiya", 2002-y, 214-bet].

Iroda insonning kundalik faoliyatida biror narsadan axborot olish natijasida odamda shu narsaga erishish uchun xohishning paydo bo'lishi va mana shu xohishni maqsadga uyg'unlashtirish, uyg'unlashgan maqsadni amalga oshirishda o'ziga ishonch va qa'tiyatlilik bilan harakatni amalga oshiradi. Irodaviy faoliyatning o'ziga hos xususiyatlari quydagilardan tashkil topgandir:

1. Irodaviy harakatlarni shaxs xamisha ularning subekti sifatida amalga oshiradi;
2. Irodaviy akt, harakat, shaxs to'la-to'kis ma'sullikni zimmasiga olgan ish, amal sifatida ichdan (ichki dunyosidan) kechiriladi.
3. Irodaviy faoliyat tufayli inson ko'p jihatdan o'zini-o'zi shaxs deb anglaydi.





4. Irodaviy faoliyat sababli shaxs o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashni tushunib yetadi. [1,214]

Shaxs irodaviy harakatlarini amalga oshirish borasida ic

hki dunyosida bor ma'sullikni o'z zimmasiga olgan holda bu ishlarni amalga oshiruvchi subekti sifatida o'z faoliyatini olib boradi.

Irodaviy faoliyati tufayli odam o'zini-o'zi shaxs sifatida anglay boshlaydi, o'ziga ishonchi ortadi, ma'suliyatli ishlardan o'zini olib qochmaydi va o'z hayot yo'lini hamda taqdirini o'zi mustaqil tarzda belgilay olishini tushunib yetadi.

Psixologiya fanida nazoratni lokallashtirish deganda shaxsning individual faoliyati natijalari uchun ma'suliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda qayd qilishi shuningdek ularning kuch g'ayratiga, qobiliyatiga moyilligini belgilaydigan sifatlar majmuasi tushuniladi. Inson o'zini-o'zi nazorat qilib turishi kerak. nazorat bor joyda o'sish, rivojlanish bo'ladi. Nazoratni lokallashtirish, hayot faoliyati natijalari uchun ma'suliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda belgilash va shaxsning qobiliyatiga moyil ekanligini belgilaydigan sifatlarning birlashmasidir. Inson hayotida har xil sharoit bo'lishi mumkin. Bu sharoit va vaziyatlar har xil oqibatlarga olib kelishi mumkin, nima bo'lganda ham inson hayotdagi bu sinovlarga osongina yengilishi kerak emas. Shaxs maqsadlarga erishishda harakatning o'rni katta ahamiyatga ega. Odam tevarak-atrofdagi narsalarni o'zgartirib, o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi yod qiladi. Shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqealikka qo'shadi. Voqealikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini 2 turkumga bo'lish mumkin: *ixtiyorsiz va ixtiyorli harakatlar*. [2,249]

Ixtiyorsiz harakatlar qat'iy bir maqsadsiz ko'pincha impuls tarzda ya'ni reflector tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, ko'z qavog'ini ochib yumish va shu kabilar. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda paydo bo'lishi, u rejalashtirilmaydi oldindan o'ylanmay amalga oshiriladi. Ixtiyorli harakatlar iroda bilan bog'liq bo'ladigan harakatlar. Ixtiyorli harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar. Lekin ixtiyorli harakatlar deganda faqat jismoniy harakatlar emas, balki aqliy harakatlar ham tushuniladi. [2,250]

### **Irodaning nerv-fiziologik asoslari:**

Irodaviy ya'ni ixtiyorli harakatlarning nerv-fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyat yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan optimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: "mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da huddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarimsharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat". [2,252]

Biz biron-bir harakatni amalga oshirsak ya'ni ongli tarzda amalga oshiramiz. Ya'ni irodaviy harakatlarimiz bizning ongli harakatlarimizdir. Irodaviy harakatlar ongli





harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liq. Ma'lumki odam ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlari orqali (ya'ni o'ziga-o'zi pand-nasihatlar berib, yoki tarbiya qilish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli kattadir. Ana shu sababdan bo'lsa kerak akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho berib, bu signallar tizimi insonlar hulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarning yuksak boshqaruvchisidir",- degan edi.

Ongli tarzda o'ylanib o'z irodamiz yetib amalga oshirgan ishda signallar tizimi faoliyati qaatnashadi. Masalan, insonlar hayotida biron-bir ishni ya'ni o'zi bilgan holda xato ishni qilayotgan bo'lsa, bu ishning xato ekanligini bu ishni yoki yo'lni to'g'ri emasligini aytib o'zini to'xtatib qoladi. U insonga signal boradi va irodasi mustahkamligi sabab bu ishdan voz kechadi. Iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma'lum bir tizimli ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi signallar tizimining birinchi signallar tizimiga asoslanganligi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Irodaviy ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signal tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi. [2,252]

### **Shaxsning irodaviy sifatlari:**


Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir; iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rindi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rindi. Biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz xohishlarni farq qilamiz.

Inson bu dunyoda yashar ekan, hech qachon insondagi xohish, istak to'xtamaydi biror narsani o'laydi, xohlaydi va maqsadga aylanadi. Mana shu maqsadga erishish yo'lida odamda sabr matonatli bo'lish, xatti-harakat qilish va iroda kuchayadi. Mana shu sifatlarni o'zida jamlab, irodasini mustahkamlab harakat qilgan inson maqsadiga erishib, undan keying kattaroq maqsad sari qadam qo'yadi. Iroda kuchi ravshan va aniq maqsad qo'yishda, shuningdek maskur maqsadga yetishishga yordam beradigan yo'l vosita va usullarni ochiq tasavvur qilishda nomoyon bo'ladi. Bu ochiq ravshanlik darajasi esa kishining turmush darajasiga va umumiyl saviyasiga bog'liq. Aniq maqsad qo'yishda inson tafakkuri va ayniqsa real hayollar (fantaziya)ning taraqqiy etishi xususiyatlari katta rol o'ynaydi. [2,261]

Oamning aniq maqsad qo'yishida uning tafakkuri, dunyoqarashi, hayotiy tajribalari muhim hisoblanadi.

### **Irodaning mustaqilligi.**

Kishilarning irodaviy harakatlariga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko'rildi. Tashabbuskorlik biror bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tevarak atrofdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini





epchillik mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda nomoyon bo'ladi. [2,266]

Inson hayotda kimgadir suyanib yordamiga muhtoj bo'lib yashamasligi kerak. Chunki odam har xil holat va vaziyatda bo'lib qoladi. Ana shunday holatlarda erkin fikrlaydigan o'z muammolarini o'zi hal qiladigan mustaqil bo'lishi kerak. Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko'z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko'rindi. Tanqidiy ko'z bilan mulohaza yuritish xarakter hislati bo'lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko'rindi, xarakterning shu hislati bo'lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga etibor bilan qulq soladi. Ularga muayyan tomoillar nuqtai nazaridan baho beradi. Ijobiy foydali narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoyda narsani dalillar bilan rad etadi.

Inson jamiyatda atrofida bo'layotgan voqeа va hodisalarga va kimningdir tomonidan aytilgan fikr, maslahat, va takliflariga o'z fikrini bildirishi yoqmagan joylariga o'zgartirish kiritishi kerak. Mulohaza yurita olish boshqalar fikrini diqqat bilan eshitish va o'z munosabatini bildirish aynan mana shu jarayonlar ham irodaning mustaqiliga bog'liq bo'ladi. Odam irodasini qanchalik mustahkamlab va mustaqil bo'lishga harakat qilsa, aynan shu insonda o'sish rivojlanish bo'ladi.

### **Irodaning axloqiyligi**

Hayot va faoliyatda iroda kuchi uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi. [2,267]

Irodaning axloqiyligi deganda biz biror bir inson maqsadiga erishish yo'lida to'sqinlik, qiyinchiliklarga uchrab ularni yengib maqsadiga erishsa mana shu yo'lagini insonning qanchalik jasur, sabr-matonatl, o'zini tuta bilishi yaxshi fikrlay olishi orqasida bo'ladi. Aynan mana shu ijobiy hislatlar *irodaning axloqiyligidir*.

Irodasi sustlikning potologiyasi mavjud bo'lib ular abulya (yun. Abulia-qatiatsizlik, - degan ma'noni bildiradi) va apraksiya (yun. Apraxia- harakatsizlik ma'nosini anglatadi) atamalari bilan ifodalanadi. Abuliya -bu miya otologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish uni amalga ishirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson ojizligidir. [1,226]

Hamma inson irodali ham maqsadiga o'ylagan orzulariga erishish uchun tinmay mehnat qiladi deyish noto'g'ri, ya'ni oramizda irodasi sust insonlar ham mavjud. Abuliya bu inson bajarishi kerak, uni bajarish zarurligini ham biladi lekin bajara olmaydiganlar. Masalan, ustoz uyga vazifani beradi, uni bajarish zarur, vazifani ko'radi, "qiyin ekan!", - deb oxirigacha harakat ham qilib ko'rmaydigan irodasi sust insonlardir.

Apraksiya – miya tuzilishining shikaslanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqlikning murakkab buzulishidan iborat psixopotologik holatdir.





Xulosa qilib aytganda, insonda hech qachon ehtiyoj tomom bo'lmaydi hattoki yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ham ehtiyoj bor. Mana shu ehtiyojlar harakatga, harakat esa maqsadga aylanadi. Lekin mana shu nuqtagacha bo'lgan vaqtda turli xil sinovlar bo'ladi. Sinovlarni yengib o'tishda insondan sabr, qattiq harakat mustahkam iroda talab qiladi. Hayotda siz orzu qilgan nimagadir erisha olmaslik, bu hayot tugadi boshqa harakatning foydasi yo'q degani emas. Tirik bo'lib, mana shu hayotda yashar ekansiz orzu va maqsadlardan qaytmaslik kerak. Qanchalik katta maqsadni o'ylagan ekansiz shunga yarasha to'siq bor. Qattiq harakat qilib buyuk inson bo'lish yoki irodasizlik qilib maqsadlari, orzularidan voz kechish ham hammaning o'ziga bog'liq. Orzularga xoh erishing xoh voz keching odamlar o'z dunyosida yashayveradi, hayot davom etaveradi. Insonga katta maqsadlar shunchaki kelavermaydi, ana shunga erisha olishini bilgani uchun o'ziga ishongani uchun paydo bo'ladi. Shuning uchun irodani mustahkamlab maqsad sari harakatdan to'xtamaslik kerak!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E. G'oziyev, "Umumiy psixologiya", T.: 2002-y
2. F.I. Haydarov va N.I.Xalilova, "Umumiy psixologiya", T.: 2009-y

